



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI




**No 7**  
**2025**

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 356 sahifa,  
1-iyul, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabihev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarcand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahriri yati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Umarova H. O' – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari .....	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'nnaviy tarbiya konsepsiysi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni .....	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdag'i bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati .....	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari .....	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiyo yinlarning ahamiyati .....	38
Salimova Dilimira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar .....	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'lima muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar .....	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lif yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq Kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi .....	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons .....	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish .....	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar .....	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories .....	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature .....	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lif sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Sohibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiyl xususiyatlari" mavzusida) .....	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning .....	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода .....	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lif muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari .....	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida .....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari .....	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish .....	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari .....	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari .....	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar .....	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish .....	141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiylarini shakllantirish texnologiyasi .....	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	148
Mamadiyorov Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli .....	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'lilda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallokova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi .....	166
Xudoberganova Matluba Quisoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzallikkleri.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабирович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati .....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida .....	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamlı ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar .....	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes .....	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	



O'zbekistani tarixi darslari pedagogik improvisatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari .....	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anjonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	
Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik .....	201
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni .....	204
Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi	
The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach .....	207
Abdulkhalilova Feruzakhon Ulugbek kizi	
Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	210
Abdullahayeva Ugiloy Djurayevna	
Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti .....	214
Aripova Sayida Abdulaxatovna	
Raqamli etiket: zamonaviy ta'lilda yangi madaniyat talabi .....	217
Rasuljon Atamuratov	
Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi.....	221
Azizova Shodiya Utkur qizi	
Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari .....	224
Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna	
O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash.....	228
Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li	
Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar .....	232
Ochilova Sarvinoz Salim qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari .....	236
Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi	
Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari.....	239
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriquqlarning samaradorligi.....	242
Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon	
Bo'lajak o'qituvchillarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli .....	245
Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi	
Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni .....	248
Umirova Gul'dona Jamoliddin qizi	
Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choraları .....	251
Ungalov Akmal Navruzovich	
Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi .....	254
Xabirova Zulfiya Anvarbekovna	
Talabalar ijtimoiy faoliyk indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati .....	257
Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li	
Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'larning ahamiyati.....	260
Yuldasheva Mastura Islamovna	
Пословицы и поговорки как отражение картины мира .....	263
Алламбергенова Шахноза Садатдиновна	
Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni .....	268
Abdumannopov Muhammadsohib Muhammadyusuf o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar.....	272
Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna	



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari .....	280
O'rinovala Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiylar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida.....	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk mакtabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'замjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari .....	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies .....	303
Kholidova Lutfiya Umurzoqovna	
Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli .....	306
Ametova Guljamilya Elbrusovna	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish .....	310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati.....	314
Choriyeva Feruza Amrullayevna	
Ibrayim Yusupovning "Sakssovul" she'rini o'qitish metodikasi .....	317
Darmenov Allayar Abdilxaq uli	
Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....	320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi	
Oiladagi zo'ravonlik: sababları, oqibatlari va psixologik yondashuvlar .....	324
Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi	
Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....	329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish .....	334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li	
Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...	339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini .....	346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....	350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi	

# DARSDA TALABALAR NUTQIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

**Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lrim kafedrasini o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Zamonaviy rivojlangan jamiyatga ilmli, ma'naviyatli, barqaror rivojlanish talablariga javob beradigan, respublikamiz kelajagi uchun qayg'uradigan intellektual yetuk avlodni tarbiyalash zarur. O'zbekiston Respublikasida ta'limning barcha bosqichlarida modulli o'qitishda nutqiy qobiliyatni rivojlantirishning asosiy maqsadi – o'rganuvchilarning ko'pmadaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun nutqiy kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Modulli o'qitish jarayonida nutqiy kompetensiya – o'rganilayotgan fan bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash qobiliyatidir. Mazkur maqolada nutqiy qobiliyatni aynan modulli o'qitish orqali shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** nutqiy kompetensiya, baholash, rivojlantirish, tizimli yondashuv, individual yondashuv, tezkor javob.

**Abstract:** It is essential to educate an intellectually mature generation that is knowledgeable, moral, and meets the demands of sustainable development in a modern, progressive society – one that is concerned about the future of our republic. In Uzbekistan, the main goal of developing speech competence through modular teaching at all levels of education is to form learners' ability to communicate in everyday, academic, and professional contexts in a multicultural world. In modular education, speech competence refers to the ability to apply acquired knowledge, skills, and qualifications in the subject through communication. This article discusses the issues of developing speech competence specifically through modular teaching.

**Key words:** speech competence, assessment, development, systematic approach, individual approach, quick response.

**Аннотация:** В современном развитом обществе необходимо воспитывать интеллектуально зрелое поколение, обладающее знаниями, духовностью и соответствующее требованиям устойчивого развития, которое заботится о будущем нашей республики. В Республике Узбекистан основная цель развития речевой компетенции посредством модульного обучения на всех уровнях образования – формирование у обучающихся способности вести коммуникацию в повседневной, научной и профессиональной среде в многокультурном мире. В процессе модульного обучения речевая компетенция определяется как способность применять полученные знания, навыки и умения по изучаемому предмету в процессе общения. В статье рассматриваются вопросы формирования и развития речевых навыков именно через модульное обучение.

**Ключевые слова:** речевая компетенция, оценка, развитие, системный подход, индивидуальный подход, оперативный ответ.

## KIRISH

Nutqiy kompetensiya til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o'qish va yozish) bo'yicha ko'nikmalarni egallashni nazarda tutadi. Modulli o'qitishda nutqiy qibiliyatni shakllantirish so'zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl hamda ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Pedagogning nutqiy qibiliyatni pragmatik kompetensiya asosida rivojlantirish – dars jarayonida nutqiy vaziyatda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda takroran so'rash, uzr so'rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur kompetensiya og'zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. Ta'lif tizimidagi bugungi ijtimoiy talablar axborotlashtirish jarayonlarini rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

Oliy ta'limi zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish, fanlardan elektron ta'lif resurslarini takomillashtirish, talabalarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta'minlash, mustaqil ta'lifni amalga oshirishda o'z-o'zini baholash, zarur ma'lumotni tezkor izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan



foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lism sifati ko'rsatkichlari dan biri – kompetentlik hisoblanadi. Inglizcha “competence” tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma'nosini anglatadi. Mohiyatan esa u faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon qila olishni anglatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Keng ko'lamli islohotlarni va modernizatsiyani talab qiladigan zamонавиј та'lим, tabiiyki, modulli o'qitish nuqtai nazaridan yondoshuv masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Bu esa, albatta, kasbiy jihatdan kompetent bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni talab etadi. Ta'lim o'z oldiga qo'yan asosiy maqsadi – talabada ijtimoiy zarur sifatlarni, nutqiy qobiliyatni, shaxs sifatida o'zini anglash va bilimlarini doimiy ravishda oshirib borish, o'zini boshqara olish hamda faollashib borish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Ushbu yo'nalishning talabalar faoliyatiga bog'liq jihatlarini o'rgangan ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarni sanab o'tish mumkin. Agar AQSh oliv pedagogik ta'lim tizimi faoliyatiga e'tibor qaratilsa, pedagogik ta'lim jaryonining asosiy maqsadlari Valentin Pilipovskiy va Nikolay Nikandrov larning tadqiqotlarida, o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimi esa N.I. Kustanova, V.B. Gargay va boshqalarning ishlarida aks etgan. Nomlari keltirilgan olimlarning tadqiqotlariga asoslanib, AQSh hamda Rossiya ta'lim tizimlari bir-birini to'ldirib, boyitgan deyish mumkin.

Yevropa davlatlarida esa pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'yicha uzlusiz ta'lim tizimi shakllantirilgan bo'lib, bu yo'nalishdagি masalalar keng ko'lama va tizimli ravishda o'rganilmoqda. AQShda kompetensiyaviy yondashuvning falsafiy asosi, uning umumiy maqsad va vazifalari, tashkiliy strukturalari, mohiyati, ta'lim standartlari va sifat nazorati, shuningdek, oliv pedagogik ta'lim muassasalarining faoliyati chuqur tadqiq etilmoqda. Ushbu mavzular M. Apple, D. Armstrong, D.L. Ball, D. Barnes, F. Baumgartner, M. Cochran-Smith, D.K. Cochran, L. Darling-Hammond, S. Feiman-Nemser, A.D. Glenn kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida batafsil yoritilgan. B. Umarov: "Biz bolalarga nimani emas, qanday o'ylash, fikr yuritish, muloqotga kirishni o'rgatishimiz lozim. Vazifamiz – bilim beribgina qolmay, ularga nutqiy faoliyatni ham o'rgatishdir. Notiqlik esa faqat bilimlar majmui emas, balki ulardan samarali foydalanish hamdir. Shu nuqtai nazardan, bolalarga dunyoni kashf qilishga va unda o'z nuqtai nazaridagi haqiqatni izlash hamda uni nutqda qo'llashga halaqit bermaslik kerak. Tasavvurni takomillashtirish, vijdonilik va mas'uliyatni shakllantirish, mehr asosida tarbiyalash – XXI asr ta'lim tizimining asosiy masalalaridan. Umuman olganda, insoniyatning kelajakdagи mohiyati ham shunda", – deb ta'kidlaydi.

A. Nurmanov o'zining dissertatsiya ishida bu tushunchaga quyidagi ta'rifni keltirgan: "Modulli o'qitishda nutq qobiliyati – muloqot subyektlarining o'zaro bir-birini tushunishi, shaxsiy rivojlanish va shaxs sifatida kamol topishiga qaratilgan o'zaro munosabatlari bo'lib, muloqotning muayyan vaziyatiga muvofiq usullari va texnikalarini adekvat qo'llash natijasidir".<sup>1</sup> A. Ashurov tomonidan mazkur tushuncha turli tadqiqot ishlarida quyidagicha ta'riflangan: "Muloqot qobiliyatları, bilim, ko'nikma va malakalar, biznes aloqalari sohasida hissiy va ijtimoiy tajribani o'z ichiga olgan shaxsning umumiy kommunikativ xususiyati".<sup>2</sup> Sh. Pulatov esa "odamlar bilan o'zaro samimiyn munosabat o'rnatish, muloqotga kirishish, jamoani ishontira bilish, yordam berish, kayfiyatni ko'tarish, ixtiyoriy-majburiy ergashtirish" degan fikr bildirgan.<sup>3</sup>

Sh. Bulbekbayeva "bilimlarni nazariy anglashdan yuksak nutq madaniyatini egallah darajasigacha yetka-zish, bilim, ko'nikma, malakalarni nutqiy faoliyatda qo'llash qobiliyati" deb ta'riflagan.<sup>4</sup>

Shu ma'noda, aqlii, ijodkor, iqtidorli va nutqiy qobiliyati yuqori bo'lmagan talabalar ham doimiy ravishda ma'lum faoliyat turlari uchun rag'batlantirilsa va amaliy tajriba orttirsa, intellektual jihatdan muvaffaqiyatli bo'lish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Bu fikrni inkor etish qiyin. Ayniqsa, bunday holat modulli o'qitishga asoslangan yondashuv tushunchalarini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayoniga osonlik bilan moslashtiradi. Shuning uchun ham ta'limgning har bir bosqichida yoshlarmizning bilimli va raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash – har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi. Xususan, oliv ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari bilan birga, o'z kasbiga sodiq qolish va ravon nutqiy qobiliyatlari bo'lib shakllanishini pedagogik ta'limgning asosiy maqsadi deb bilish, shuningdek, ijtimoiy va shaxsiy tajribaning ahamiyatini tushu-

1 Nurmanov A.T. Talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari (auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar misolida). 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va tarixi. Ta'limda menejment (pedagogika fanlari). doktorlik dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2017. – B. 16.

2 Ashurov A. Texnika oliv ta'lim muassasaları bakalavr talabaları kommunikativ chet tili kompetentsiyasining shakllanishida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2020. – B. 12.

3 Pulatov Sh. Ta'limda menejment yoxud ta'lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish texnologiyasi. O'quvmetodik qo'llanma. – T.: 2017. – B. 63.

4 Bulbekbayeva Sh.B. Ona tilini davlat tili bilan kommunikativ kognitiv asosda qiyosiy o'rgatish (ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida) 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (qozoq tili) pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand. 2019. – B. 11.

nishlari hamda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratish muhimdir. Bunda aynan bugungi ta'lif tizimi asosi bo'lgan modulli ta'lif tizimida nutqiy qobiliyatni rivojlantirish asosiy masala hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kompetentlik – ma'lum fan sohasida samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan bilim va tajribalarni egallash. Nutqiy qobiliyatni rivojlantirish tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyat, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan foydalana olish kabi sifatlar ham kiradi.

Nutqiy qobiliyat tushunchalarining tavsiflarida quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi:

- bilimlar majmuining amalda qo'llanishi;
- shaxsning fikrini ifoda eta olishi, xislatlari va fazilatlari;
- amaliy faoliyatga nutqiy tayyorlik darajasi;
- muammolarni hal qilish va amalda zarur natjalarni qo'lga kiritish layoqati;
- shaxsning kasbiy faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar yaxlitligi;
- faollashgan (amaliyotga tatbiq qilingan) o'quv, bilim, tajribalar majmui;
- shaxsning maqsadga yo'naltirilgan emotsiyal iroda kuchi.

Bizningcha, nutqiy qobiliyat faqatgina bilim va ko'nikmalarning so'zdagi yig'indisi bo'lib qolmay, balki tala-balarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va amaliyotda muayyan vaziyatlarda qo'llay olish bilan ham tafsiflanadi. Uni o'z egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni nutqiy faoliyatda qo'llay olish tajribasi deb qarash kerak. Bunday ta'lifning asosiy vazifasi – talabalarni topshirqlarni yechish faoliyatiga va hayotiy faoliyat doirasida turli muammolarni hal qilishga o'rgatishdan iboratdir.

Jahon ta'lif amaliyotida "nutqiy qobiliyat" tushunchasi o'zida ta'lifning intellektual va malakaviy tarkibini birlashtirish, nutqiy jarayonda ifoda etish, ta'lif mazmunini interpretatsiya qilish g'oyasini qamrab olish bilan birga madaniyat va faoliyat sohalaridagi keng qamrovli (axborot, huquqiy va h.k.) qator ko'nikma va malakalarni integratsiyalash tabiatiga ega. Modulli o'qitishda nutqiy qobiliyat – fan bo'yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish, mazkur bilimlarni nutqiy jarayonda qo'llay olishdir. Nutqiy qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lif – talabalarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lmdir.

Hozirgi kunda yetuk mutaxassis bo'lib yetishish uchun kasbiy nutq kompetensiyasini takomillashtirish zarur. Shu sababli, oliy ta'lidiagi o'quv jarayonida talabalar kasbiy nutq qobiliyatiga katta e'tibor qaratmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni kasba metodik tayyorlash tizimida ushbu mutaxassisni yetarli darajada tayyorlash, unga madaniyatning alohida shakli, fikrlash vositachisi bo'lgan va shaxs tomonidan amalga oshiriladigan o'qitiladigan til, o'rganilayotgan til mamlakati, bu tilni o'qitish tamoyillari, usullari va vositalari haqida bilim berish katta ahamiyatga ega. Ushbu komponentlarning har biri ma'lum bir xilma-xil kasbiy faoliyatni asoslaydigan va tartibga soluvchi nazariy bilimlar bilan birga keladi. Yetarli kasbiy malaka va kasbiy madaniyat pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shartdir. Talaba kasbiy nutq qobiliyatini takomillashtirish uchun o'sha sohani yetarli darajada bilishi, sohaning eng mayda elementlari haqida malakali gapira olishi, tegishli psixologik-pedagogik va uslubiy bilimga, umumiylar nutqiy-madaniy tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Demak, modulli o'qitish tizimida talabalar nutqiy qobiliyati samaradorligi ko'pgina omillar bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimi – o'qituvchining darsda talabalar bilan muloqot qilish jarayonida so'zlardan o'z o'rniда unumli foydalana olishidir. Kommunikativ va tarbiyaviy funksiyani amalga oshirishda o'qituvchining nutqi juda katta rol o'ynaydi.

Talabalar bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'lgan darajada kommunikativ madaniyatga ega bo'lsalar, ularning mahorati namoyon bo'ladi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalarning darsdagisi nutq faoliyati hali ham zaif bo'lib, aloqa muammolarini hal qilishda qiyinchiliklarga olib keladi. Bu esa og'zaki muloqotga yetarli tayyorgarlik ko'rmaslik oqibatidir. Talaba nutqi haqli ravishda ta'lif jarayonida eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, modulli o'qitish darslarida talabaning nutqiy mahorati bevosita so'zni o'z o'rniда topib qo'llay olish va uning asl ma'nosini bilish darajasiga bog'liq. Bu esa diksiya va so'z ustida, o'z fikrini aniq ifodalash hamda fikrning to'g'riligini asosli isbotlash ustida doimiy va maqsadli ishslashni talab qiladi. Yuqorida aytilganlarning barchasi talabalarni darsda muloqot qilish ko'nikmalariga maqsadli ravishda o'rgatishda qanday rol o'ynash lozimligini belgilaydi. Ko'rinish turibdiki, modulli o'qitish tizimida talabaning nutqiy faoliyati o'ziga xos mazmun bilan to'ldiriladi.

Talabalarga modulli o'qitish tizimida kasbiy nutq aloqasini qanday materiallar orqali o'rgatish mumkin? Rag'batlantirish, javob berish, nazorat qilish va tartibga solish qobiliyatini o'z ichiga olgan murakkab nutq mahorati qanday? Bizning fikrimizcha, asosiy nuqta – talabalarga o'quv jarayonini boshqarish imkonini beruvchi nutqiy muloqotni o'rgatishda foydalanish mumkin bo'lgan materialni taqdim etish, shu bilan birga nutq birliklarini to'g'ri tanlashdir. Talabalarga kasbiy nutqiy muloqotni birinchi kursdan boshlab o'rgatish lozimdek tuyuladi. Og'zaki nutq va nutqiy qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar "pedagogik texnika"ning bunday tarkibiy qismlarini shakllantirish uchun katta imkoniyat yaratadi, masalan: ovoz, diksiya, intonatsiya va boshqalar. Buning sababi – birinchi yilda o'qituvchiga taqlid qilish, nutqiy qobiliyatni tekislash, shaxsiy ma'lumotlarni aytishga katta e'tibor berilishi bilan bog'liq. Bu talaffuzni yaxshilashga, ritm tuyg'usini, aniq diksiyani va ovoz balandligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ya'ni, bo'lajak o'qituvchining muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur texnik shart-sharoitlarni yaratadi.

Keyingi kurslarda fonetika, og'zaki nutqni talab qiladigan metodika fanlaridan amaliy mashg'ulotlarda kasbiy nutqiy qobiliyat ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha uzluksizlikni ta'minlash zarur. O'qituvchining kasbiy faoliyatidagi asosiy vazifa – talabalarga ma'lum bilimlarni yetkazishdir. Shu sababli, o'qituvchi nutqi shunday tashkil etilishi va taqdim etilishi kerakki, u yetkazayotgan ma'lumot talabalar tomonidan to'liq va qiyinchiliksiz idrok qilinsin. Shubhasiz, talabalar e'tiborini bo'lajak kasb egalari nutqi sifatida ularning nutqi aniq, ravshan, ifodali va ta'sirchan bo'lishi kerakligiga qaratish zarur. O'qituvchining nutqi tinglovchilarga qaratilgan bo'lib, u audiovizualdir. O'qituvchi nima haqida gapirayotgan bo'lsa, talabalar nafaqat eshitish orqali, balki vizual idrok orqali ham qabul qiladilar. "Eshitish orqali talabalar so'zni, uning asosiy ma'nosini va intonatsiyasini idrok etadilar... Vizual ravishda esa talabalar o'qituvchining yuz ifodalarini, shuningdek, bayonet bilan birga kechadigan xatti-harakatlarning hissiy komponentini idrok qiladilar." Talaba nutqiy qobiliyati qiziqish uyg'otadigan darajada ifodali bo'lishi zarur. Afsuski, ko'pincha talaba nutqida intonatsiya vositalarining bir xilligini, nutqning rang-barangligi bilan ishslash yetishmasligini ta'kidlash lozim. Ma'lumki, "nutqning ta'sirchanligi nafaqat uning mazmuni va maqsadiga mos kelmaydigan so'z vositalaridan foydalanganda, balki talabanining mimikasi, imo-ishoralari, umuman olganda, xatti-harakati aytilayotgan mazmunga to'g'ri kelmasa ham susayadi".

## TAHLIL VA NATIJALAR

Shunday qilib, talabalar bilan nutqiy o'zaro munosabatlarning malakali qurilishi o'qituvchiga o'quv jarayonida pedagogik salohiyatdan iloji boricha samarali foydalanishga yordam beradi. Talabalarning professional nutq qobiliyatini takomillashtirish uchun material tanlashga to'xtalib o'tamiz. O'quv vazifalarini uch turga bo'lish mumkin:

- 1) reseptiv (boshqa shaxsnинг kommunikativ xulq-atvorining xususiyatlarini diqqat bilan kuzatish, tahlil qilish va tushunish uchun vazifalar);
- 2) reproduktiv (transformatsiyasiz ko'paytirish);
- 3) samarali (ma'lum muammoli vaziyatda o'z kommunikativ faoliyatini amalga oshirish).

Yosh mutaxassisni modulli o'qitish tizimida nutqiy qobiliyatini shakllantirishda o'qituvchi ibrati alohida o'rinish tutadi. Bu to'g'ridan-to'g'ri ta'larning yuqori bosqichida professional nutqiy qobiliyatni rivojlantirish masalasiiga tegishlidir. Shunday qilib, modulli o'qitish tizimida talabalar nutqiy qobiliyatini rivojlantirish uchun dars davomidagi nutqlarda, tinglovchilarga murojaat qilishda, iboralarni bir xilda takrorlashdan ko'ra, fanga oid bilimlarning talabalar tomonidan to'g'ri aytishiga alohida e'tibor berish va shu bilan birgalikda nutqning original namunalaridan foydalanish uchun ko'plab imkoniyatlar yaratish lozim.

Og'zaki nutqni mashq qilish uchun talabalarni modulli darslarda, masalan, pedagogik diagnostika darslarida professional nutq aloqasiga o'rgatish, o'qituvchining kommunikativ faoliyatining asosiy funksiyalarini amalga oshirish uchun talabalar o'zlashtirishlari kerak bo'lgan haqiqiy nutq materialini o'z ichiga olishi kerak. Talabalarni kasbiy nutq mashg'ulotlariga tayyorlash faqat taklif qilingan mashqlarni bajarish bilan cheklanib qolmaydi. Talabalarning egallagan kasbiy malakalarini saqlash, mustahkamlash va yanada takomillashtirish faoliyatini tashkil etish zarur. Kasbiy nutq qobiliyatini oshirish bo'yicha doimiy va maqsadli ish zamonaviy o'qituvchining muvaffaqiyatli faoliyatining kalitidir. Talabalar kasbiy nutq qobiliyatini shakllantirishga asoslangan darslarni aynan modulli o'qitish tizimiga joriy etish yo'nalish ta'limining asosiy mohiyati – modulli o'qitish tizimidan tashkil topgan o'quv-tarbiya jarayonida talabalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatlarini takomillashtirishga yo'naltirishdan iboratdir.

Nutqiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvda o'qitish maqsadlari talabalar tomonidan o'z-o'zini anglash, ta'limg-tarbiya jarayonida o'quv maqsadlariga erishish yo'llarini tushunish, talabalarning o'quv-bilish faolligini oshirish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi, ijtimoiy-

lashuvi kabi ustuvor yo'naliishlarni mo'ljallashni nazarda tutadi. Modulli o'qitish tizimida har bir o'qituvchi nutqiy faoliyat turlari, nutq apparati, nutqning vazifalari, nutqning uslubiy turlari, o'qituvchi nutqining sifatlari, nutq texnikasi asoslari, pedagogik nutq muloqotining o'ziga xos xususiyatlarini va boshqa shu kabi elementlarni mukammal bilishi kerak. Shu bilan birga o'qituvchi nutqining o'ziga xos xususiyatlarini, notiqlik mahoratini, nutq madaniyatining pedagogik-psixologik asoslarini chuqur bilishi lozim. Nutq qobiliyati ta'limgarayonining eng muhim vositasidir. O'qituvchi notiqlik bilimlарини талабаларга nutq orqali yetkazishda pedagogika va psixologiya fanlarining asoslariga, ularning qonuniyatlariga tayanadi. Notiqlik mahorati o'qituvchidan pedagogika fanining asosiy qonuniyatlarini, prinsiplari va ularni dars hamda darsdan tashqari mashg'ulotlar, nutq jarayonida to'g'ri tadbiq eta olishni talab qiladi. Ma'lumki, pedagogika fani – maxsus tashkil qilingan ta'limgarayonida inson shaxsini rivojlantirish, ma'lumotli qilish va shakllantirishning mohiyati hamda qonuniyatlar haqidagi fandir. Shu sababli ta'limgarayonida pedagogika fanining nufuzi oshib bormoqda. Mustaqil respublikamiz fuqarolarini yangicha tarbiyalash, o'qitish, komil inson qilib shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishda pedagogika fani katta ishlarni amalga oshirishi zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'qituvchi nutqining pedagogik asoslar deganda, bevosita o'qitish va tarbiyalash qonuniyatlariga amal qilish tushuniladi. Pedagogikaning didaktika bo'lumi ta'limgarayonining umumiyligi qonuniyatlarini o'rganadi va u ta'limgarayonida berish nazariyasi hisoblanadi. Shu jumladan, ayrim fanlar, xususan modulli o'qitish uslubiyati ham didaktigiga tayanishi bilan ajralib turadi.

Ayni vaqtida umumiyligi didaktika ta'limgarayonining qonun-qoidalarini ochib bergan holda xususiy metodikalaridan material oladi. O'qituvchining vazifasi – talaba ongiga tayyor bilimlarni "qo'yish"dan iborat emas, balki ularni dars davomida nutq orqali tilga olingan masalalar ustida fikr yuritishga, mulohaza qilishga, nutqiy qobiliyatni baholash va rivojlantirishga yo'naltirishdan iboratdir.

Modulli o'qitish jarayoni ikki yoqlama jarayondir, chunki unda ikki shaxs – o'qituvchi va talaba ishtirok etadi. Nutq – bu o'qituvchining talabalarga bilim, ko'nikma va malaka berish jarayonida, ularda yangi haqiqatlarni ochishga qodir bo'lgan ijodiy va mantiqiy tafakkurni tarbiyalash vositasidir.

O'qituvchi nutqini tinglash – bu talabalarning o'qituvchi tomonidan berilgan bilim va ko'nikmalarini o'zlashirish, qabul qilish jarayonidir. Bu jarayonda ularda bilish qobiliyati, fikrlash operatsiyalari va harakatlar shakllanadi. O'qitish, ta'limgarayonining asosi – bilish nazariyasi qoidalaridir. Bu nazariya asosida inson dunyoniga anglaydi. Bilish yo'llari – jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tishdan iborat. Bilish esa hissiy va aqliy bilish turlariga ajraladi.

Insonning ana shu bilish jarayonida nutq muhim rol o'ynaydi. Nutq, albatta, og'zaki va yozma shakllarda bo'ladi. Shu bois, o'qituvchining nutqi ham real asosda predmet va hodisalarini kuzatish natijasida shakllanadi. Ular asosida yangi vazifalarni ishlab chiqib, talabalarga taqdim etilgandagina, bu nutq samarali bo'ladi.

Bunday yondashuvda o'qituvchi:

- talabalar ongida tasavvur va tushunchalarning shakllanishiga;
- ularni chuqur o'zlashtirishiga;
- o'zlashtirilgan bilimlarni hayotga tatbiq etishiga;
- mustahkam dunyoqarashga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Khaitova, I. I., & Olimov, S. S. (2020). The Main Problems of Studying Electronic Information and Educational Environment of the High School: Experience of Analysis of Scientific Literature. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(12), 127–131.
2. Avliyoqulov, N. X. O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslar. – Buxoro, 2001. – 7 b.
3. Rashidov, X., Xabib, X. va boshqalar. Kasbiy pedagogika: o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2007. – 23 b.
4. Raximov, B. X., Mavlyanov, A., Choriyev, V. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009. – 83 b.
5. Sayidaxmedov, N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – Toshkent: Ta'limg markazi, 1999. – 43 b.
6. Sayidaxmedov, N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). – Toshkent: Moliya, 2003. – 76 b.
7. Tolipov, O., Usmonboyeva, M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslar: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, O'zP-FITI, 2006. – 81 b.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
  - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
  - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03** Maxsus pedagogika
  - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07** Ta'limda menejment
  - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00** Tarix fanlari
  - 19.00.00** Psixologiya fanlari
  - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00** Kimyo fanlari
  - 03.00.00** Biologiya fanlari
  - 09.00.00** Falsafa fanlari
  - 10.00.00** Filologiya fanlari
  - 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.